<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



BOLALARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA POLISENSOR MULOQOT METODIKASI

Musratova Zilola Ulug'bekovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
Maktabgacha ta'lim musiqiy kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasidan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari va amaliy jihatlari yoritilgan. Polisensor muloqot metodikasi bolalarda bir vaqtning o'zida bir nechta sensor kanallar (ko'rish, eshitish, teginish, ta'm bilish va hidni sezish) orqali axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonini faollashtirish orqali kognitiv rivojlanishni jadallashtirish imkonini beradi. Tadqiqotda multisensor yondashuvning fiziologik va psixologik asoslari hamda uning maktabgacha yoshdagi bolalarning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, maqolada polisensor muhitni tashkil etishning didaktik tamoyillari, amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy tavsiyalar va ko'rgazmali namunalarni keltirilgan. Maqola pedagog-tarbiyachilar, psixologlar hamda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: polisensor muloqot, kognitiv qobiliyatlar, multisensor yondashuv, maktabgacha ta'lim, sensor integratsiya, idrok faoliyati, didaktik vositalar, kognitiv rivojlanish, polisensor muhit, ta'lim texnologiyalari.

Abstract: The article examines the theoretical and methodological foundations and practical aspects of applying polysensory communication methodology in the development of cognitive abilities of children in preschool educational institutions. The polysensory communication approach enhances cognitive development by activating the processes of receiving and processing information through the simultaneous engagement of multiple sensory channels, including vision, hearing, touch, taste, and smell. The study analyzes the physiological and psychological foundations of the multisensory approach and its impact on the development of perception, attention, memory, thinking, and speech in preschool children. In addition, the article presents didactic principles for organizing a polysensory learning environment, methodological recommendations for practical activities, and illustrative examples. The article is intended for educators, psychologists, and administrators of preschool educational institutions.

Key words: polysensory communication, cognitive abilities, multisensory approach, preschool education, sensory integration, perceptual activity, didactic tools, cognitive development, polysensory environment, educational technologies.

Аннотация: В статье раскрываются теоретико-методологические основы и практические аспекты применения методики полисенсорного общения в развитии когнитивных способностей детей в дошкольных образовательных учреждениях. Методика полисенсорного общения способствует ускорению когнитивного развития за счёт активизации процессов восприятия и обработки информации посредством одновременного использования нескольких сенсорных каналов (зрения, слуха, осязания, вкуса и обоняния). В исследовании анализируются физиологические и психологические основы мультисенсорного подхода, а также его влияние на развитие восприятия, внимания, памяти, мышления и речи детей дошкольного возраста. В статье представлены дидактические принципы организации полисенсорной среды, методические рекомендации для проведения практических занятий и наглядные примеры. Статья адресована педагогам-воспитателям, психологам и руководителям дошкольных образовательных учреждений.

Ключевые слова: полисенсорное общение, когнитивные способности, мультисенсорный подход, дошкольное образование, сенсорная интеграция, перцептивная деятельность, дидактические средства, когнитивное развитие, полисенсорная среда, образовательные технологии.

KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogika fani rivojining yangi bosqichida bolalarning bilish faoliyatini intensivlashtirish, ularning aqliy qobiliyatlarini to'laqonli shakllantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham kognitiv

ko'nikmalarni rivojlantirish, kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab qo'yilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, ular atrof-muhitni, avvalo, sezgi a'zolari orqali idrok etadilar. Shu sababli sensor rivojlanish kognitiv rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi kanallaridan foydalanganda bilish jarayoni yanada samarali kechadi, axborot yaxshiroq esda qoladi va uni anglash darajasi chuqurlashadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Polisensor muloqot metodikasi bolalar bilan pedagogik ta'sir o'tkazishda bir vaqtning o'zida turli sensor kanallarni, jumladan, ko'rish, eshitish, teginish, ta'm bilish va hidni sezishni faollashtiruvchi hamda ularni o'zaro integratsiya qiluvchi yondashuv sifatida talqin etiladi. Ushbu metodika neyrofiziologik tadqiqotlarga asoslanib, miyaning turli sohalari o'rtasidagi funksional aloqalarni mustahkamlash orqali kognitiv jarayonlarni jadallashirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, an'anaviy ta'lim metodlari, asosan, bitta yoki ikkita sensor kanalga, ya'ni ko'rish va eshitishga yo'naltirilgan bo'lib, boshqa sezgi a'zolarining imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmaydi. Polisensor muloqot metodikasi esa barcha sezgi kanallarining sinergik ta'sirini ta'minlash orqali kognitiv jarayonlarni maksimal darajada faollashtirish imkonini beradi.

Polisensor muloqot metodikasining nazariy-metodologik asoslari miya plastisiteti (neyroplastisitet) va sensor integratsiya nazariyalariga tayanadi. Xususan, amerikalik olim J. Ayres tomonidan 1972-yilda ishlab chiqilgan sensor integratsiya nazariyasiga ko'ra, turli sensor kanallardan keladigan axborotlarning miya tomonidan birlashtirilishi va qayta ishlanishi kognitiv rivojlanishning muhim asosi hisoblanadi.

Zamonaviy neyrofiziologik tadqiqotlar (D. Bavelier, 2012-yil; M. Shams va R. Seitz, 2008-yil) multisensor stimulyatsiya miyaning visual, auditor va somatosensor korteks kabi turli sohalari o'rtasida yangi neyron aloqalarning shakllanishiga olib kelishini isbotlagan. Ushbu jarayon, o'z navbatida, kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, bolalarda sensor integratsiya jarayoni 0–7 yosh oralig'ida ayniqsa jadal rivojlanadi. Shu bois maktabgacha yosh davrida polisensor ta'sirni qo'llash optimal natijalar beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 5–7 yoshli bolalarda turli sensor modalliklar o'rtasidagi aloqalar tez shakllanadi va mustahkamlanadi.

Polisensor muloqot metodikasining psixologik asosi L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, J. Piajetning kognitiv rivojlanish nazariyasi hamda A.N. Leontevning faoliyat nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir.

L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, bolaning rivojlanishi tashqi ta'sirotlarning ichki psixik funksiyalarga aylanishi, ya'ni internalizatsiya jarayoni orqali amalga oshadi. Polisensor ta'sir ushbu jarayonni tezlashtiradi, chunki bir vaqtning o'zida turli sensor kanallar orqali olinadigan axborot mazmunan boy va ko'p qirrali bo'ladi.

J. Piajet konsepsiyasiga muvofiq, bolalar bilimni faol ravishda qurish orqali egallaydilar. Polisensor tajriba bolalarga predmet va hodisalarning turli jihatlarini bir vaqtning o'zida tadqiq etish imkonini berib, kognitiv strukturalarning boyishi va differensiyatsiyasiga zamin yaratadi.

Zamonaviy psixologiyada A. Paivio tomonidan 1986-yilda ilgari surilgan "ko'p kodlovchi" (dual-coding) nazariya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, axborot bir vaqtning o'zida verbal va noverbal, ya'ni vizual va kinestezik shaklda kodlanganda xotira izlari kuchayadi hamda eslab qolish samaradorligi ortadi. Polisensor muloqot metodikasi aynan shu tamoyilga asoslanadi.

Polisensor muloqot metodikasining pedagogik asoslari M. Montessori va F. Frebelning klassik pedagogik tizimlarida ifodalangan sensor tarbiya g'oyalariga borib taqaladi. Xususan, M. Montessori o'z pedagogik tizimida sensor ta'limga alohida e'tibor qaratib, bolalarning sezgi a'zolarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli sensor materiallarni ishlab chiqqan.

Zamonaviy didaktikada polisensor yondashuv sensor kanallarning kompleks faollashuvi, sensor integratsiya, sensor tajribani individuallashtirish, progressivlik hamda faollik va mustaqillik tamoyillariga tayanadi. Ushbu tamoyillar ta'lim jarayonida barcha mavjud sensor kanallardan samarali foydalanish, turli sezgi kanallari orqali olingan axborotni yagona obrazga birlashtirish, har bir bolaning individual sensor xususiyatlarini hisobga olish, sensor ta'sirning murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish va bolalarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan.

Polisensor muloqot metodikasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi. Vizual komponent rang, shakl, o'lcham va fazoviy munosabatlarni idrok etish orqali ta'lim berishni nazarda tutib, bunda rang kartalari, geometrik shakllar, illyustratsiyalar, videomateriallar va didaktik tasvirlardan foydalaniladi. Audial komponent turli tovushlar, musiqalar, ritmlar va ovozlarni eshitish hamda farqlashga asoslanib, musiqa asboblari tovushlari, tabiiy tovushlar va og'zaki hikoyalarni o'z ichiga oladi. Taktil-kinestezik komponent tegi-



nish, tutish va harakatlar orqali o'rganishni ta'minlab, bunda turli teksturali materiallar, qum, plastik massa va tabiiy obyektlardan foydalaniladi. Olfaktor komponent hidlar orqali ta'lim berish va xotirani kuchaytirishga xizmat qilib, mevalar, gullar va oshxona hidlari kabi tabiiy hidlardan foydalanishni nazarda tutadi. Gustator komponent esa ta'm sezgilari orqali ta'lim berishga yo'naltirilib, bunda xavfsiz va turli ta'mli mahsulotlar, jumladan, shirin, nordon, achchiq va sho'r mahsulotlardan foydalaniladi.

Polisensor muhit bolalarning turli sensor kanallarini faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi maxsus tashkil etilgan rivojlantiruvchi-ta'lim makoni sifatida qaraladi. Bunday muhit tarkibida sensor laboratoriyasi, multimediya vositalari bilan jihozlangan zona, kreativ ustaxona hamda tabiiy burchak bo'lishi mumkin. Sensor laboratoriyasida turli sensor materiallar, tajriba o'tkazish vositalari va kuzatish asboblari joylashtirilib, bolalarning mustaqil tadqiqot olib borishlari uchun sharoit yaratiladi. Multimediya zonasida interaktiv doska, planshetlar va audio-vizual vositalar orqali zamonaviy multisensor kontentlar taqdim etiladi. Kreativ ustaxonada bo'yash, model-lashtirish va konstruksiyalash faoliyatlari orqali bolalar sensor tajriba to'playdilar. Tabiiy burchak esa o'simliklar, hayvonlar va tosh, yog'och hamda qum kabi tabiiy materiallar bilan tanishish orqali bolalarning jonli tabiat bilan bevosita muloqotini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari, pedagoglar va ota-onalar bilan suhbat hamda diagnostik topshiriqlar orqali olindi. Olingan ma'lumotlar tajriba va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlarini solishtirish, foizli tahlil va sifat tahlili usullari yordamida qayta ishlanib, polisensor muloqot metodikasi-ning kognitiv rivojlanishga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Polisensor muloqot metodikasining amaliy qo'llanilishi jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turli mashg'ulotlar tashkil etildi. Jumladan, "Fasllar sayohati" mashg'uloti 5–6 yoshli bolalarda fasllar haqidagi bilimlarni mustahkamlash va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida olib borildi. Ushbu mashg'ulotda har bir fasl uchun rang palitralari tanlanib, bahor yashil va sariq, yoz qizil va ko'k, kuz jigarrang va oltin, qish esa oq va ko'k-kulrang ranglar orqali ifodalandi. Fasllarni aks ettiruvchi yorqin illyustratsiyalar va videolar, shuningdek, fasllarga xos tabiiy manzaralar, jumladan, jonli o'simliklar va qorli landshaft modellari qo'llanildi. Audial ta'sir sifatida bahorda qushlar sayrashi, yozda momaqaldiroq va yomg'ir tovushi, kuzda shamol va yog'ayotgan barglar tovushi, qishda esa qorning qirillashi eshittirildi, fasllarga bag'ishlangan qo'shiqlar va she'rlar, shuningdek, A. Vivaldining "To'rt fasl" asaridan parchalar tinglatildi. Taktil-kinestezik ta'sir orqali bahorda nam tuproq va yosh barglar, yozda issiq qum va suv bilan o'yinlar, kuzda quruq barglar hamda don mahsulotlari (bug'doy, arpa), qishda esa sovuq predmetlar, sun'iy qor (paxta) va muz bo'laklari bilan tajribalar o'tkazildi. Olfaktor komponent doirasida bahorda gul hidlari (lola, piyoz, nargis), yozda o'txo'rak va meva-sabzavotlar hidlari, kuzda o'rmon va yangi pishirilgan non hidlari, qishda esa archa, gilos va mandarin hidlari qo'llanildi. Gustator komponent orqali bahorda yangi ko'katlar (piyoz, ukrop), yozda tarvuz, poliz mahsulotlari va bodring, kuzda olma, uzum va asal, qishda esa issiq choy hamda quritilgan mevalar ta'mini tatib ko'rish tashkil etildi. Mashg'ulot davomida tarbiyachi fasllar haqida hikoya qilib berish bilan birga barcha sensor kanallarni faollashtirdi, bolalar esa faol ishtirok etib, o'z tajribalarini baham ko'rdilar, savollar berdilar va topshiriqlarni bajarishdi.

Shuningdek, "Geometrik shakllar olami" mashg'uloti bolalarda geometrik shakllar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va matematik tafakkurni rivojlantirishga qaratildi. Ushbu mashg'ulotda turli rangli va o'lchamli geometrik shakllar, jumladan, doira, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak va oval shakllar namoyish etildi, interaktiv doskada shakllarning transformatsiyasi ko'rsatildi hamda shakllardan tuzilgan rasmlar va ornamentlardan foydalanildi. Audial ta'sir sifatida har bir shakl uchun maxsus tovush yoki melodiya tanlandi, ya'ni doira uchun yumshoq va davomli tovush, kvadrat uchun qattiq va ritmik tovush, uchburchak uchun esa o'tkir va keskin tovush qo'llanildi, shakllar haqida qo'shiqlar va sanashqalar aytili. Taktil-kinestezik ta'sir jarayonida yog'och, plastik, mato va qog'ozdan yasalgan geometrik shakllar, konturlari chizilgan relyefli kartalar, ko'zni yumgan holda shakllarni tanish o'yinlari hamda geometrik shakllar asosida konstruksiya qurish mashqlari bajarildi. Harakatli faoliyat davomida bolalar tanada geometrik shakllar hosil qildilar, shakllar bo'ylab yurish va sakrash mashqlarini bajardilar hamda "Shakl topish" o'yinida xonadan kerakli shakllarni izladilar. Mashg'ulot tanishuv (5–7 daqiqa), sensorli tadqiqot (8–10 daqiqa), faol mashq (10–12 daqiqa) va refleksiya (3–5 daqiqa) bosqichlarida tashkil etildi.

Ta'limiy faoliyat jarayonida "Sensor sandiq", "Tovush va shakl", "Hid va xotira" hamda "Ta'm va tasvir" kabi didaktik o'yinlardan foydalanildi. "Sensor sandiq" o'yinida bolalar yopiq qutidagi predmetlarni faqat teginish orqali aniqlab, ularning shakli, rangi, hajmi, og'irligi va vazifasini tavsifladilar. "Tovush va shakl" o'yinida musiqiy

tovushlarga mos harakatlar bajarildi. "Hid va xotira" o'yini lavanda, limon, vanil va qahva hidlari orqali olfaktor xotirani rivojlantirishga xizmat qildi. "Ta'm va tasvir" o'yinida esa bolalar turli ta'mli mahsulotlarni tatib ko'rib, ushbu ta'mga mos rang va shakllarni tasvirladilar.

Tajriba-sinov ishlari natijalari kognitiv ko'rsatkichlar dinamikasining ijobiy o'zgarishini ko'rsatdi. Olingan natijalar polisensor muloqot metodikasidan tizimli foydalanish bolalarning kognitiv rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

1-jadval: **Kognitiv ko'rsatkichlar dinamikasi**

Kognitiv ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (o'sish, %)	Nazorat guruhi (o'sish, %)
Idrok aniqligi	42 %	18 %
Diqqatni jamlash	38 %	15 %
Qisqa muddatli xotira	45 %	20 %
Mantiqiy fikrlash	40 %	17 %
Nutq rivojlanishi	35 %	14 %
O'rtacha ko'rsatkichlar	40 %	17 %

Natijalar shuni ko'rsatdiki, polisensor muloqot metodikasidan tizimli foydalanish bolalarning barcha kognitiv ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Eng yuqori o'sish qisqa muddatli xotira (45 %) va idrok aniqligi (42 %) ko'rsatkichlarida kuzatildi.

Kuzatishlar hamda pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbatlar quyidagi sifat o'zgarishlarini aniqladi. Bolalarda mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish va motivatsiya sezilarli darajada ortdi. Tajriba guruhi bolalari faol ishtirok etdilar, ko'proq savollar berdilar va mustaqil tadqiqot olib borishga intildilar.

Bolalarning sensor tajribasi boyidi. Ular predmetlar va hodisalarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishni o'rgan-dilar hamda ularning xususiyatlarini yanada aniqroq tasvirlay boshladilar.

Kreativlik va tasavvur rivojlanishi kuzatildi. Polisensor tajriba bolalarga yangi g'oyalar yaratish va original yechimlar topishga yordam berdi.

Ijtimoiy ko'nikmalar yaxshilandi. Guruh mashg'ulotlari davomida bolalar o'z tajribalari va his-tuyg'ulari haqida ko'proq gapira boshladilar, bir-birlariga yordam ko'rsatdilar.

Ota-onalar fikriga ko'ra, ularning bolalari uy sharoitida ham ko'proq savollar bera boshladilar, atrofdagi dunyoga qiziqishlari ortdi va yangi bilimlarni o'rganishga bo'lgan intilishlari kuchaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, polisensor muloqot metodikasi maktabgacha yoshdagi bolalarning kogni-tiv qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu metodika neyrofiziologik, psixologik va pedagogik asoslarga ega bo'lib, ilmiy jihatdan asoslangan. Polisensor muhitni tashkil etish hamda maxsus didaktik vositalardan foydalanish metodikaning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sensor laboratoriyalari, multimedia zonalari va kreativ ustaxonalar polisensor ta'limning zaruriy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Polisensor muloqot metodikasi nafaqat kognitiv, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bolalarda empatiya, hamkorlik qilish qobiliyati va his-tuyg'ularni ifodalash ko'nikma-lari yaxshilanadi. Metodikaning muvaffaqiyatli joriy etilishi pedagoglarning maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishini, polisensor muhitni yaratish uchun zarur resurslarning mavjudligini hamda tizimli yondashuvni talab qiladi.

Polisensor muloqot metodikasini bosqichma-bosqich joriy etish, dastlab pilot guruhlarida sinab ko'rish va keyinchalik barcha guruhlariga tatbiq etish tavsiya etiladi. Har bir guruhda kamida sensor laboratoriyasi va kreativ burchak tashkil etish zarur.

Polisensor muloqot metodikasi bo'yicha maxsus treninglardan o'tish, sensor materiallar bazasini muntazam ravishda boyitib borish hamda mashg'ulotlarni rejalashtirishda barcha sensor kanallarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Kelajakda ushbu yo'nalishda quyidagi tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi: turli yosh guruhlaridagi 3–4, 4–5 va 6–7 yoshli bolalar uchun polisensor muloqot metodikasining o'ziga xos xususiyat-larini tadqiq etish; raqamli texnologiyalar (virtual reallik, interaktiv dasturlar) va an'anaviy sensor ta'lim vosi-talarini integratsiyalashning optimal variantlarini ishlab chiqish; maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun polisensor muloqot metodikasining moslashtirilgan variantlarini yaratish; shuningdek, uzoq muddatli ta'sirni o'rganish, ya'ni polisensor muloqot metodikasi asosida ta'lim olgan bolalarning maktab ta'limidagi muvaffaqi-yatini kuzatish.



Polisensor muloqot metodikasi maktabgacha ta'limni takomillashtirish hamda bolalarning kognitiv salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu metodikaning keng joriy etilishi O'zbekiston ta'lim tizimi sifatini oshirishga muhim hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Ayres, A.J. Sensory Integration and the Child. – Los Angeles: Western Psychological Services, 1979. – 182 p.
4. Bavelier, D., Green, C.S., Pouget, A., Schrater, P. Brain plasticity through the life span: learning to learn and action video games // Annual Review of Neuroscience. – 2012. – Vol. 35. – P. 391–416.
5. Barsalou, L.W. Grounded cognition // Annual Review of Psychology. – 2008. – Vol. 59. – P. 617–645.
6. Diamond, A. Activities and programs that improve children's executive functions // Current Directions in Psychological Science. – 2012. – Vol. 21(5). – P. 335–341.
7. Монтессори, М. Дом ребёнка. Метод научной педагогики. – М.: Задрюга, 1913. – 339 с.
8. Paivio, A. Mental Representations: A Dual Coding Approach. – Oxford: Oxford University Press, 1986. – 322 p.
9. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 198 p.
10. Shams, L., Seitz, A.R. Benefits of multisensory learning // Trends in Cognitive Sciences. – 2008. – Vol. 12(11). – P. 411–417.
11. Stein, B.E., Stanford, T.R. Multisensory integration: current issues from the perspective of the single neuron // Nature Reviews Neuroscience. – 2008. – Vol. 9. – P. 255–266.
12. Выготский, Л.С. Мышление и речь // Собрание сочинений: В 6 т. Т. 2. – М.: Педагогика, 1982. – С. 5–361.
13. Леонтьев, А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.
14. Венгер, Л.А. Восприятие и обучение: дошкольный возраст. – М.: Просвещение, 1969. – 365 с.
15. Запорожец, А.В. Избранные психологические труды: В 2 т. Т. 1. Психическое развитие ребёнка. – М.: Педагогика, 1986. – 320 с.
16. Mirziyoyev, Sh.M. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish – millat kelajagi garovi // Xalq so'zi. – 2022-yil 30-dekabr.
17. Yo'ldosheva, D.B. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2018. – 256 b.
18. Xoshimova, M.X., Rahmonova, Z.D. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 312 b.
19. Nizomova, G.A. Zamonaviy maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 224 b.
20. Eshmatova, N.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faollikni shakllantirish. – Samarqand: SamDU, 2021. – 178 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.